



ISSN 2181-1571

# FarDU. ILMIY XABARLAR

## IJTIMOIY FANLAR




2/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket Ilmiy ishlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof.
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, prof.
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof.	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof.
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof.	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Sidoarjodagi Muhammadiya universiteti, Siyosat va xalqaro huquq. Ogaya davlat universiteti, PhD, prof.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof.	SCOTT LEVI (AQSH)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof.	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Ataturk Universiteti
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof.	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
ABDULLAEVA Z (Qirg'iz Respublikasi)	OshDU k.f.n., dots.	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof.		

## Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof.
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc).
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof.	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof.	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots.	QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d., prof.
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.	FarDU, t.f.b.f.d., prof.
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.	FarDU, t.f.b.f.d., dots.
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots.		

**Bo'lim boshlog'i:** Zokirov I.l., b.f.d., prof.

**Texnik muharrir:** Sheraliyeva J.

**Musahhihlar:** Mahmudov F.  
O'rinboyev I.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Farg'ona 2025

<b>J.Sultonov</b>	
Chingizxon va Jin davlati o'rtasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili .....	224
<b>M.A.Boltaboyev</b>	
Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati.....	234
<b>Sh.B.Jumayeva</b>	
Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat .....	239
<b>M.R.Sodiqova</b>	
Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni (1991-2021-yillar) .....	244
<b>A.X.Nigmatov</b>	
Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari .....	251
<b>M.B.Nazirov</b>	
Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri .....	257
<b>B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev</b>	
A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi .....	260
<b>M.A.Maxmudov</b>	
XX asrning 20-30-yillarda O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati.....	266
<b>I.B.Boxodirov</b>	
Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi.....	270
<b>J.Sultonov</b>	
Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi .....	273
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) .....	279
<b>O.H.Jaynarov</b>	
O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari).....	284
<b>O.M.Normatov</b>	
Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida .....	289
<b>Y.A.Shukurillayev</b>	
Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari.....	293

## ILMIY AXBOROT

<b>Z.X.Oxunova</b>	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallahuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar .....	297
<b>X.J.Isomiddinov</b>	
Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari .....	300
<b>M.B.Nazirov</b>	
Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri ....	304



УО'К: 94;(575.1)342

## О'ZBEKISTON SSR ADVOKATURASI TIZIMI: ISLOHOT VA NATIJALAR (XX ASR 20-YILLARI)

### «АДВОКАТУРА УЗБЕКСКОЙ ССР: РЕФОРМЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ (20-е ГОДЫ XX ВЕКА)»

### "THE ADVOCACY SYSTEM OF THE UZBEK SSR: REFORMS AND RESULTS (20s OF THE XX CENTURY)"

Jaynarov Obidjon Hamid o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, t.f.f.d. (PhD), dotsent

#### *Annotatsiya*

Maqolada keng turdag'i birlamchi manbalar va tarixiy adabiyotladiagi ma'lumotlar asosida O'zbekiston SSRda XX asr 20-yillarda advokatura organlari faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar, "Himoyachilar kollegiyasi to'g'risidagi" Nizom, undagi asosiy jihatlar yoritib berilgan. Bunda advokatlar tomonidan ko'satilgan yuridik xizmatlar, ularning natijalan, advokatlarning milliy tarkibi va ma'lumot darajasi ham tahlil qilingan.

#### *Annomatsiya*

В статье на основе широкого круга первоисточников и исторической литературы описаны изменения, произошедшие в деятельности адвокатуры в Узбекской ССР после установления Советской власти. Проанализированы юридические услуги, оказываемые адвокатами, их результаты, национальный состав и уровень образования адвокатов.

#### *Abstract*

The article, based on a wide range of primary sources and historical literature, describes the changes that occurred in the activities of the legal profession in the Uzbek SSR after the establishment of Soviet power. The legal services provided by lawyers, their results, the national composition and level of education of lawyers are analyzed.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston SSR, Adliya xalq komissariligi, Nizom, sudlar, jamoat oglovchilar, himoyachilar, Advokatlar kollegiyasi, yuridik yordam.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, Народный комиссариат юстиции, Положения, суды, общественные защитники, правозащитников, коллегии защитников, юридическая помощь.

**Key words:** Turkestan ASSR, Uzbekistan SSR, People's Commissariat of Justice, Regulations, courts, public defenders, human rights defenders, bar associations, legal assistance.

## KIRISH

1924-yili o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralaranish natijasida O'rta Osiyo mintaqasida milliy sotsialistik respublikalar jumladan, O'zbekiston SSR tashkil qilindi. Bu paytda O'zbekiston SSR hududi 312 394 km<sup>2</sup> (ayrim adabiyotlarda 176 774 km<sup>2</sup> yoki 163 797 versta), aholisi esa 3 963 285 kishi bo'lgan. 1925-yil 13-17 fevralda Buxoroda maxsus qurulgan Xalq uyida Butuno'zbek (O'zbekiston SSR) Sovetlarining I ta'sis qurultoyi (s'ezdi) bo'lib o'tdi. Qurultoy tomonidan 17-fevralda "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi. Deklaratsiya O'zbekiston SSR (O'zSSR) tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va O'zSSRning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e'lon qildi[1].

O'zbekiston SSRning tashkil qilinishi mavjud davlat tuzilmalari va sohalarda ham o'zgarishlarni taqozo qildi. Bunday o'zgarishlar adliya jumladan, aholiga yuridik xizmat ko'satish tizimida ham amalga oshirildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Advokatura organlarining XX asr 20-yillardagi faoliyatiga doir bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud. Xususan, M.V.Kojevnikovning "Советская адвокатура", M.Shalamovning "История советской адвокатуры" nomli asarlarida sovet advokatusining tashkil qilinishidan to 30-yillardagi faoliyatiga to'xtalib o'tilgan bo'lsa, Ye.Dubkov (Демократические основы организаций советской адвокатуры: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Москва, 1965. – 16 с.), M.Maxbubov (Создание и развитие адвокатуры в Узбекистане: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. –

## TARIX

Ташкент, 1975. – 30 с.), G.Sarkisyans (Адвокатура Советского Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1972. – 80 с.), B.Salomovlarning (Ўзбекистон Республикасида адвокатлик фаолияти, унинг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси (тажриба ва муаммолар): Юрид. фан. докк.. дисс. – Тошкент, 2004. – 368 б.) tadqiqotlarida advokaturaning ichki jihatlari, ularning faoliyati, huquq va majburiyatları huquqiy nuqtai-nazardan baholab berildi.

Ushbu maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyillari, obyektivlik, tizimli, shuningdek, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston SSR advokatura organlarining boshqaruvi va faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi birinchi qonunchilik hujjati Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 1926-yil 29-sentabrda qabul qilinib, 1927-yil 15-fevraldan kuchga kirgan "O'zbekiston SSR sud tizimi to'g'risidagi" Nizom bo'ldi. Undagi sohaning huquqiy maqomi Adliya Xalq Komissarligi kollegiyasi tomonidan 1927 yil 14 dekabrda tasdiqlangan "Himoyachilar kollegiyasi to'g'risidagi" Nizomda bat afsil bayon etildi[2].

Milliyy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi O'zbekiston SSRda sudlov organlarining yangi tizimini tashkil qilinishini taqozo qildi. Xususan, O'zbekiston MIQning 1926 yil iyunda bo'lib o'tgan IV sessiyasidagi qarori bilan o'tkazilgan ma'muriy rayonlashtirish natijasida 7 ta oblast o'rniда 10 ta okrug (Andijon, Buxoro, Zarafshon (O'rta Zarafshon), Kashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xo'jand va Xorazm) tashkil etilib, 23 ta uyezd o'rniда esa 87 ta rayon (tuman)lar tashkil etildi[3]. Shunga mos ravishda faoliyat yuritib kelgan viloyat va uyezd sudlari tugatilib, ularning o'rniiga okrug va rayonlar soniga mos ravishda okrug va rayon xalq sudlari tashkil etildi[4]. Bu jarayon advokatlar kollegiyasi faoliyatida ham o'zgarishlar qilinishiga sabab bo'ldi. Viloyat sudlarining tugatilishi munosabati bilan advokatlar kollegiyasi faoliyatini boshqarish okrug sudlari vakolatiga kiritildi. Endilikda Advokatlar kollegiyasiga a'zolar soni cheklanmagan ravishda qabul qilinib, okrug sudlari nazorati ostida faoliyat yurita boshladi.

Yuqorida aytib o'tilgan Nizomda ham boshqaruv organlarining ilgari mavjud bo'lgan tuzilmasi, kengash tarkibiga qabul qilish, yangi a'zolarni kollegiyaga qabul qilish, advokatlarga xizmat ko'rsatganligi uchun haq to'lanish tartiblari saqlanib qoldi. Shu bilan birga, Nizomga ayrim o'zgarishlar ham kiritildi. Xususan, kollegiya a'zolariga o'z kasbiy vazifalarini bajarishda, shuningdek, kengash tarkibiga qabul qilinayotgan yangi a'zolarga qo'yiladigan talablar oshirildi.

O'zSSR Adliya xalq komissarligi tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq kollegiya a'zoligiga qabul qilish saylov asosida amalga oshirilgan. Talabgorlar sovet adliya organlarida kamida ikki yillik ish tajribasiga ega, davlat universitetlarining yuridik bo'limlarini tamomlagan hamda belgilangan dastur bo'yicha tegishli sinovlardan o'tgan bo'lishi lozim bo'lgan. Shu maqsadda har bir okrug sudida sinov komissiyasi tuzilib, uning tarkibiga tuman sudi a'zosi, advokatlar hay'ati prezidiumi a'zosi va okrug prokurori kiritilgan.

Ushbu Nizomda qanday holatdagi shaxslarning advokatlar kollegiyasi tarkibiga qabul qilinmasligi ham belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq, ishchi sovet xalq deputatlari Kengashlariga saylash va saylanish huquqidан mahrum bo'lgan, SSSRdagи mavjud birorta advokatlar kollegiyasi tomonidan intizomiy tartibda advokatlikdan chetlatilgan, sharmandali huquqbazarliklari va nomaqbil xatti-harakatlari uchun jamoat tashkilotlaridan chiqarib yuborilgan yoki intizomiy chora ko'rilgan shaxsler ana shundaylar jumlasiga kiritilgan.

Talabgorlarni kollegiya a'zoligiga qabul qilinganligi to'g'risida Prezidium tomonidan okrug ijroiya qo'mitasiga va okrug sudi rayosatiga bildirishnoma berilgan. Sababi ularda kollegiyaga yangi qabul qilingan a'zolar borasida e'tiroz bildirish huquqi mavjud bo'lgan. Kollegiya a'zoligiga qabul qilish bo'yicha rad javobini olgan talabgorlar Advokatlar kollegiyasining umumiyligi yig'ilishi shikoyat qilishi mumkin bo'lgan. Maboda, ariza beruvchi kollegiya umumiyligi yig'ilishi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda bu bo'yicha Adliya xalq komissariga shikoyat qilishi belgilab qo'yilgan.

Bir so'z bilan aytganda advokatlarni birgina kollegiya a'zoligiga qabul qilish jarayoni ustidan okrug sudi, ijroiya qo'mitaning tegishli Soveti hamda adliya xalq komissari yalpi nazorati o'rnatilgan edi.

Himoyachilar kollegiyasi a'zolari qo'shimcha ravishda davlat tashkilotlari va korxonalarda faoliyat olib borishlari taqiqlab qo'yilgan edi. Faqatgina ayrim istisno holatlarda advokatlar yuridik fanlar bo'yicha professor-o'qituvchi, davlat, jamoat tashkilotlari va korxonalarda yuriskonlultlik lavozimlariga saylanishi saylanishi mumkin bo'lgan. Bunda advokatlarga o'sha tashkilot va himoyachilar kollegiyasi Prezidiumning o'zaro kelishuvi asosida ruxsat berilgan.

Advokatlik sohasi boshqaruvida advokatlar kollegiyasi a'zolarining umumiyligi yig'ilishi hamda Prezidium muhim rol o'yagan. Ular advokatlarning umumiyligi yig'ilishida bir yil muddatga saylangan.

Kollegiya a'zolarining umumiyligi yig'ilishi Prezidiumning tashabbusi bilan har ikki oyda bir marotaba o'tkazilgan. Shuningdek, yangi rayosat saylangan taqdirda advokatlar kollegiyasi a'zolarining kamida 2/3 qismi umumiyligi yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi iltimosnomasi bilan okrug sudi Prezidiumiga murojaat qilgan taqdirda uning tashabbusiga ko'ra chaqirilishi belgilab qo'yilgan. Kollegiya a'zolarining umumiyligi yig'ilishida asosan advokatlarning hisobotlari tinglangan va kollegiya faoliyatiga oid masalalar muhokama qilingan.

Tahlil qilinayotgan Nizomda kollegiya umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi nusxalari uchun muddatda Adliya xalq komissarligi, okrug prokururaturasi hamda okrug sudiga yuborilishi ko'rsatib o'tilgan. Biroq amalda bunday bayonnomalarning juda kam qismlari kollegiya tomonidan tegishli organlarga jo'natilgan.

Nizomda Prezidiumga yuklatilgan qator vazifalar ham ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilar: a) kollegiyaga yangi a'zolarni qabul qilish; b) kollegiya a'zolari tomonidan o'z vazifalarini bajarayotganligini nazorat qilish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va kuzatib borish; v) huquqiy maslahatlar berish orqali aholiga yuridik yordam ko'rsatishni, tayinlash asosida advokatlarning sudda himoyachi sifatida qatnashishini shuningdek, kollegiyaga murojaat qilgan shaxslarning arizalariga ko'ra ularga bepul yoki haq evaziga yuridik xizmatlarni amalga oshirishni tashkil qilish; g) advokatlar o'z kasbiy vazifalarini buzgan taqdirda, ularning ishlarini intizomiyliga tartibda ko'rib chiqish; d) kollegiya fondi mablag'lari taqsimlash; e) Narkomyust va okrug sudi Prezidiumiga kollegiya faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim qilish va boshqalar.

Ta'kidlash kerak, Prezidium tomonidan chiqarilgan qaror va farmoyishlar kollegiyaning har bir a'zosi tomonidan ijro qilinishi majburiy etib belgilangan. Prezidium tomonidan advokatlarga nisbatdan ogohlantirish, hayfsan, ikki yilgacha bo'lgan muddatga o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtirish va kollegiya a'zoligidan chiqarib yuborish kabi intizomiyliga jazo choralar qo'llanilgan. Mabodo advokat kollegiya a'zoligidan chetlatilganda, bu haqda matbuot orqali ma'lum qilingan. Bundan shaxsning boshqa hududlarda advokatlik bilan shug'ullanmasligiga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Advokatlarga nisbatdan qo'llanilgan intizomiyliga choralar bo'yicha chiqarilgan barcha qarorlarni Prezidium, Adliya xalq komissarligi, okrug prokururaturasi hamda sudiga taqdim qilishi lozim bo'lgan. Prezidiumning intizomiyliga chora qo'llash bo'yicha chiqargan qarorlari yuzasidan Adliya xalq komissarligiga murojaat qilishi belgilab qo'yilgan.

So'z yuritilayotgan Nizomda Prezidium raisiga quyidagi vakolatlar berilgan: a) kollegiya a'zolarining umumiyligi yig'ilishi va Prezidium qarorlarini hayotga tatbiq qilish; b) kollegiya nomidan davlat organlari hamda jismoniy shaxslar bilan muloqot olib borish; v) sudning talabiga binoan jinoyat ishlarini bo'yicha himoyani navbatdagi tartibda tayinlash va boshqalar.

Advokatlar kollegiyalarida a'zolar soni 6 nafardan kam bo'lgan taqdirda kollegiya umumiyligi yig'ilishida ular orasidan vakil saylangan. Ushbu vakilga advokatlar tomonidan o'z vazifalarini bajarayotganligini nazorat qilish hamda ularning faoliyatini kuzatib borish; kollegiya fondini taqsimlash, okrug sudi ko'rsatmasi asosida joylarda yuridik maslahatlarni tashkil qilish, kollegiyaga yangi a'zolarni qabul qilish va boshqa vazifalar yuklatilgan. Ko'rindaniki, vakilning vazifa va vakolatları Prezidiumnikidan deyarli farq qilmagan.

Tahlil qilinayotgan Nizomda advokatlarning mehnatiga haq to'lash tartibi ham ko'rsatib berilgan. Ma'lumot o'rnda aytish kerak maxsus sud qarori bilan nochor deb topilgan shaxslar, ishsizlar, urush va mehnat nogironlari, ijtimoiy ta'minot organlari va sug'urta jamg'armalaridan nafaqa oladiganlar va Qizil Armiya askarlari jinoiy va fuqarolik ishlar bo'yicha har qanday to'lovlardan ozod qilinishi belgilangan. 9 razryaddan yuqori maosh oladigan davlat va xususiy korxona ishchilari, sovet muassasalari va korxonalari xodimlari, "Qo'shchi" uyushmasi a'zolari advokatlar xizmatlari uchun Adliya Xalq Komissarligi tomonidan belgilangan tarif bo'yicha haq to'laganlar. Boshqa barcha holatlarda advokatlar ko'rsatgan xizmatlari evaziga tomonlar bilan kelishuv asosida xizmat haqqi olgan. Olingan haqning ma'lum foizi kollegiya fondiga ajratilib, uning miqdori kollegiya a'zolarining umumiyligi yig'ilishida belgilab olingan. Ushbu fonddagi mablag'lari yangi kadrlarni tayyorlash, advokatlar mehnatiga haq to'lash hamda ular tomonidan o'tkazilgan ma'ruzalar va kollegiyaning boshqa ishlariga sarflanishi ko'rsatilgan.

Ushbu Nizomda advokatlar kollegiyasi a'zolariga o'z xizmat vazifalarini amalga oshirishi bo'yicha bir qator talablar ham belgilab berildi:

## TARIX

- advokat bir vaqtning o'zida ikkala nizolashayotgan tomon uchun ham oqlovchi sifatida ishlay olmaydi va ularga u yoki bu shaklda yuridik yordam ko'rsata olmaydi;
- o'z himoyasidagi shaxsnинг sirlarni uning ruxsatiz nafaqat ish jarayonida balki u yopilgandan keyin ham oshkor qilishga haqli emas;
- advokat o'z xizmatlarini og'zaki va bosma nashrlar (matbuot) orqali reklama qilishi taqiqlanadi;
- ish bilan o'z vaqtida va har tomonlama tanishib chiqishi va faqat ishonch bildiruvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart;
- sudlanuvchiga o'lim jazosi tayinlangan hollarda hukm chiqarilgunga qadar sud zalida qolishi hamda ayblanuvchiga nisbatdan oliy jazoni bekor qilish to'g'risida iltimosnomasi yuborishi shart;
- mijoz bilan munosabatlari tugagandan so'ng, advokat unga barcha hujjatlarni kvitansiya bilan qaytarishi va olingan pulning sarflanganligi to'g'risida hisobot, shuningdek ishning holati to'g'risida ma'lumotnomasi taqdim qilishi kerak;
- advokat aholiga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida o'z navbatchilik kuni maslahat punktiga kelishi shart edi. Agar shu kunda u masalaning murakkabligi tufayli yuridik yordam ko'rsatishni yakunlay olmasa, murojaat etuvchiga maxsus kun tayinlangan va maslahat keyingi navbatga o'tkazilmasdan yakunlanishi kerak bo'lgan.

O'zSSR Adliya xalq komissarining 1928 yil 3 fevraldagi sirkulyari asosida barcha okrug sudsari, prokurorlar va advokatlar kollegiyasi o'z faoliyatini ushbu Nizom asosida olib borishi belgilab qo'yildi[5].

O'zbekiston SSRning tuzilishi natijasida advokatlarning sonida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 1925 yil noyabrdagi ma'lumotlar bo'yicha advokatlar viloyatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: Toshkent viloyati Advokatlar kollegiyasida 56 nafar[6], Samarqand viloyati kollegiyasi tarkibida 21 nafar, Farg'ona viloyatida 29 nafar[7], Zarafshon viloyatida 5 nafar[8], Qashqadaryo viloyati Advokatlar kollegiyasi tarkibida esa 2 nafar himoyachi[9] faoliyat ko'rsatgan. Xorazm viloyatida esa himoyachilar kollegiyasi faoliyati 1926 yilning oxiridan yo'lga qo'yila boshlagan. Bu haqda Xorazm viloyat sudining 1927 yil 10 yanvardagi taftish hisobotida shunday deyilgan: "Himoyachilar kollegiyasi faoliyati mavjud. Biroq uning tarkibi juda zaif, asosan evropalik aholi vakillaridan iborat. Shu davrgacha sud jarayonlari davlat ayblovi va himoyachilar ishtirokisiz tashkil qilingan"[10].

Ushbu ma'lumotlardan ko'rindanadi, XX asr 20-yillari oxirida advokatlar kollegiyasi faoliyati boshqa hududlarga nisbatdan Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida etarlichcha tashkil qilingan. Bu viloyatlardagi kollegiyalarda prezidium faoliyat yuritib, prezidium tomonidan nafaqat viloyat markazlarida balki uyezd (Andijon, Namangan, Mirzacho'l va boshqa)larda istiqomat qilayotgan aholiga ham yuridik yordam xizmatini ko'rsatish ishlari yo'lga qo'yildi. Qolgan viloyatlarda esa uyezdlar u yoqda tursin hattoki viloyat markazlarida ham advokatlar faoliyati qoniqarsiz holatda bo'lgan.

XX asr 20-yillari oxirida O'zSSRdagagi mavjud advokatlarning milliy tarkibi va ma'lumot darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, ular orasida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lganlar orasida Toshkent viloyati etakchilik qilgan. Viloyatda 56 nafar advokatning 35 nafari oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan. Toshkent viloyati advokatlar kollegiyasida a'zolarning 8 nafarini mahalliy millat vakillari tashkil qilgan. Himoyachilar orasida 5 nafar xotin-qizlar ham bo'lgan[11]. Samarqandda mavjud himoyachilardan 4 nafari mahalliy millat vakillari bo'lib, 21 nafar advokatdan 9 nafari oliy yuridik ma'lumotli edi. Viloyatda 4 nafar ayol advokatlar ham faoliyat yuritgan. Farg'ona viloyati kollegiyasi 29 nafardan iborat bo'lib, ulardan 8 nafari mahalliy millat vakillari edi. Advokatlar orasida 16 nafar oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan himoyachilar faoliyat olib borgan.

## XULOSA

Xullas, milliy-hududiy chegaralanishi natijasida o'tkazilgan hududiy-ma'muriy o'zgarishlar, soha faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qisqa davr amalda bo'lishi, ularning tez-tez o'zgarib turishi advokatlar hamda aholining yuridik yordamga muhtoj qatlami orasida turli tushunmovchiklar va ziddiyatlari holatlarni keltirib chiqardi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). К.1. Ўзбекистон 1917–1939 йилларда / масъул мухаррирлар Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 309.
2. ЎзМА Р-904-фонд, 2-рўйхат, 48-иш, 91-92-вараглар.

3. Норматов О. Ўрта Осиёда ўтказилган раёнлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б. 63.
4. Комолов Д. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925-2020 йй.): Тарих фан. докт (DSc). дисс... автореф. – Қарши, 2022. – Б. 19.
5. ЎзМА Р-904-фонд, 1-рўйхат, 204-иш, 15-варак.
6. ЎзМА Р-904-фонд, 9-рўйхат, 18-иш, 21-75-вараклар.
7. Jaynarov O. K. CHANGES IN THE ADVOCACY SYSTEM IN TURKESTAN (20S OF XX CENTURY) //Western European Journal of Linguistics and Education. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 52-57.
8. ЎзМА Р-904-фонд, 9-рўйхат, 18-иш, 87-варак.
9. ЎзМА Р-904-фонд, 1-рўйхат, 27-иш, 11-13-вараклар.
10. ЎзМА Р-93-фонд, 1-рўйхат, 95-иш, 182-варак.
11. JAYNAROV O. TOSHKENT “HUQUQ HIMYOYACHILARI KOLLEGIYASI” FAOLIYATI TARIXIDAN (XX ASR 20-YILLARI) //News of the NUUz. – 2024. – Т. 1. – №. 1.9. – С. 9.